

JALOLIDDIN MANGUBERDI -SO’NGGI QAHRAMON

Sanakulova Nilufar Aktamkulovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali. Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Jaloliddin Manguberdi-O’zbek xalqining milliy qahramoni,mo’g’ullarga qarshi mardonavor kurash olib brogan sarkarda va davlat arbobi. U Xorazmshohlar davlatining so’nggi hukumdori.Mo’g’ullar istilosiga qarshi mardonavor kurashgan jasur jangchi. Uning vatanparvarligi bilan faxrlansak arziydi.

Jaloliddin Manguberdi 1198-yilda Xorazmda tug’ilgan bo’lib,uning otasi-Xorazm shohi Alouddin Muhammad II,onasi esa qipchoq malikasi Oychechak bo’lgan. Jaloliddin harbiy muhitda ulg’aygani sababli bolaligidanoq harbiy bilmlarni puxta egallaydi. G’azna viloyati Jaloliddinning qaramog’ida bo’lishiga qaramay,otasi og’lini o’zini oldida ushlab turadi. Shunga qaramay yosh Jaloliddin dushmanlar bilan tinimsiz janglar bo’lib turadigan chegaraga chiqishga harakat qiladi.

1219-yili Chingizzon boshchiligidagi mo’g’ullar Xorazmshohlar davlatiga hujum qildi.Jiddiy xastalangan Alouddin Muhammad II mo’g’ullar hujumini qaytara olmay,mamlakatni tashlab ketishga majbur bo’ladi va Kasbiyga qochadi. Uchta o’g’lini to’playdi,Jaloliddinning beliga o’z shamshirini osib,uni taxt vorisi etib tayinlaydi va 1220-yilda Kasbiy dengizi sohillarida vafot etdi. Muhammadning o’limidan so’ng Jaloliddin taxtga o’tiradi.

Jaloliddin Manguberdi esa otasidan farqli ravishda qochishni emas,kurashni tanlaydi.U o’z atrofiga uch yuz kishidan iborat sodiq turkman yigitlarini to’playdi va mo’g’ullarga qarshi kurash boshlaydi.Bu jangda u o’zining harbiy strategiyasini va taktik mahoratini namoyish etib yeti yuz kishilik mo’g’ul qo’shinini osonlikcha yengadi.

Biroq,Parvon jangidan so’ng Chingizzonning o’zi Jaloliddingga qarshi yurish qiladi. Hal qiluvchi jang 1221-yilning 9-dekabr kuni Sind daryosi bo’yida ro’y beradi. Ushbu jangda Jaloliddin qattiq mag’lubiyatga uchradi,biroq u mo’g’ullar qo’liga tushmaslik uchun o’z haramini daryoga cho’ktirishni amr etadi.So’ngra,asir tushmaslik uchun tulpori bilan o’zini Sind daryosiga tashlaydi va daryodan suzib o’tishga muvaffaq bo’ladi.Chingizzon uning bu jasoratiga qiyil qolib,o’g’illariga:”Otadan shunday o’g’il tug’ilsa edi!” deya ta’kidlagan.

Jaloliddin Manguberdi Sind daryosidan o’tib,Hindistonga yo’l oldi. Bu yerda o’z qo’shinini tiklab,yana bir bor Xorazmni ozod etish uchun harakat boshladidi.U 1224-yilda Eron va Iroq hududlariga qaytib kelib,yangi yurishlarni boshladidi.1228-yili u Ozarbayjon va Kavkaz hududlarini egalladi va mo’g’ullarga

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

qarshi yangi ittifoqlar tuzishga harakat qildi. 1230-yilda Saljuqiyalar bilan bo’lgan jangda zaiflashib qoldi. Mo’g’ullar esa bu vaziyatdan foydalaniib, unga yana hujum qildi. Mo’g’ullar bilan bo’lgan jangda Jaloliddin qattiq yaralanadi. Nihoyat, 1231-yilda Jaloliddin Manguberdi Kurdiston tog’larida mahalliy qabilalar tomonidan o’ldirildi.

Jaloliddin Manguberdi o’z hayotini vatan himoyasi va ozodligi yo’lida fido qilgan mard sarkarda edi. U mo’g’ullar istilosiga qarshi hech qanday yordam olmagan holda kurashdi va so’nggi nafasigacga taslim bo’lmadi.

Bugungi kunda Jaloliddin Manguberdi o’zbek xalqining milliy qahramoni sifatida e’tirof etiladi. Uning nomi shon-sharaf bilan tilga olinadi, xotirasiga haykallar o’rnatilgan va u haqida tarixiy asarlar yozilgan. Jaloliddin Manguberdi- jasorat va mardlik timsoli uning hayoti va jasorati kelajak avlodlar uchun ibrat bo’lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qayumov A. “Jaloliddin Manguberdi” - Toshkent, “O’zbekiston”, 1999.
2. Aminov Z. “Xorazmshohlar tarixi” - Toshkent, 2005.
3. Xayrulla Ismatullayev. “Jaloliddin Manguberdi-milliy qahramon” - Toshkent, 2017.

BOSHLANG‘ICH SINF O’QUVCHILARIGA CHET TILLARINI O’QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

Sayidova Gulchiroy Nekboyevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

*Turizm fakulteti Maktabgacha va boshlang‘ich
ta’limda xorijiy til (ingliz tili) yo‘nalishi 23-2 guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: Tulyaganova Nargiza Farxadovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati haqida so‘z boradi. Xususan, raqamli qurilmalarning dars jarayonlaridagi ahamiyati va o‘quvchilarning bilim olishidagi o‘rni haqida qisqacha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, pedagogik texnologiya, raqamli qurilma, dars, metod, ingliz tili, innovatsion yondashuv, ta’lim samaradorligi.

Bugungi rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyatida til o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda chet tillarini bilish turli